



TALABALARIDA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK OMILLARI

Qurbonova M.T.

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: vatanparvar, insonparvarlik, individual, tarbiyachi - tarbiyalanuvchi

Ключевые слова: патриотизм, гуманизм, личность, учитель-ученик.

Key words: patriotism, humanism, personality, teacher-student.

Talabalarga ta'lim-tarbiya berishda individual yondoshuv tarbiyaning muhim tamoyillari qatoridan joy olgan. Ya'ni, tarbiya jarayonini amalga oshirish talabanning shaxsiy xususiyatlarini va yashash sharoitlarini chuqur bilishga hamda hisobga olishga tayanishi zarur.

Ma'lumki, bilim yurtlarda talabalar hamma uchun umumiy bo'lgan ta'lim standartlariga va tarbiyalanganlik darajalariga mos ravishda tayyorgarlikdan o'tadilar. Umumiy ta'lim natijalariga erishishga yoki hamma uchun birday tarbiyaviy qoidalarni o'zlashtirishga qaratilgan ta'limda, bir qarashda xuddi talabanning individual xususiyatlarini hisobga olishga hojati yo'qday tuyuladi. Ammo individual yondoshish asosiy ta'lim va tarbiya mazmunini alohida bir talabaga moslashtirishni anglatmaydi, balki pedagogik-psixologik ta'sir metodlari va shakllarini talabanning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda qo'llashni ko'zlaydi. Hamma uchun birday pedagogik-psixologik ta'sir usullarini qo'llash, har bir talabanning betakror ekanligini hisobga olmaslik, so'zsiz tarbiya ishida muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e'tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan faxrlanish, vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda "pedagog-o'smir", "tarbiyachi - tarbiyalanuvchi" munosabatlarida mamlakatda ozod va obod vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita o'smir yoshlarga bog'liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta'lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta'minlash, shuningdek,



yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o'zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj hamda qiziqishni qaror toptirishga e'tibor qaratish lozim. Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishining ichki shaxsiy munosabatlarning manbai o'smir faoliyati, muloqot va munosabat jarayonlari xisoblanadi. Ular o'zgarishi, barqaror-beqaror tus olishi, yoki yo'qolib ketishi mumkin. O'smirlar o'rtasida ijobiy shaxslararo munosabatlar- ijtimoiy adaptatsiya, ya'ni ijtimoiy vaziyat va munosabatlarga muvoffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Ularda boshqalarga keraklilik xissini shakllanishiga imkon beradi.

O'smir yoshlarda eng yuqori qadriyatlardan hisoblangan, vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida oila, ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada pedagogik talablarning o'smir shaxsiga ijobiy ta'sir etishi, o'smir tarbiyasi uchun mutasaddi bo'lgan mutaxassislar, ota-onalar uchun psixologik savodxonlik darajasini yuqori bo'lishligini talab qiladi. Aks holda bu talablar o'smir shaxsi usun o'ziga xos "Bosim" sifatida qabul qilinadi. O'smir shaxsida ijtimoiy muxitdan begonalashuv, norozilik xissini shakllanishiga olib keladi. O'smirlik yoshiga xos ushbu xususiyatlarni tarkib topishida ulardagi xayotiy tajribaning yetishmasligi, o'z fikr va muloxazalarida tezkor, ayrim xollarda o'ylanmasdan qarorlar qabul qilishlari sabab bo'ladi.

Yuqoridagilarni ta'kidlagan xolada o'smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida quyidagi amaliy tavsiyalarni keltirib o'tamiz

1. O'smir-yoshlar o'rtasida vatanparvarlikni shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi, xususan, unda o'smirlardagi ijtimoiy psixologik, individual tipologik xususiyatlarni o'rganishning o'rni muhim omildir

2. Har bir fandan o'qitiladigan mavzularni vatan mavzusi bilan bog'lash va bu sohada yirik ilmiy meros qoldirgan vatandoshlarimizni qayd etish

3. O'smir-yoshlar o'rtasida vatanparvarlik va baynalminalchilik xislarini ko'chaytirish pedagogik- psixologik va ijtimoiy psixologik fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalarini tayyorlash zaruriyati yuzaga keldi.

4. Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi albatta o'smirlarda mustaqillik, intiluvchanlik, insoravarlik kabi shaxs sifatlarini tarkib topishi bilan bog'liq. Bu borada ulardagi xissiy-irodaviy xususiyatlarni tarbiyalab borishda o'smirlar bilan bevosita psixologik tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

5. Mustaqillik yillari ishga tushirilgan va millatning faxriga aylangan sanoat korxonalariga, ekskursilar uyushtirish, ularda mexnat qilayotgan el xurmatiga sazovor bo'lgan insonlar bilan suxbatlar o'tkazish

6. O'smirlardagi xayotiy, istiqbolli rejalarini vatan, millat, xalq taqdiri bilan xamoxanglikda idrok etishga yo'naltirish

7. Ommaviy axborot vositalari vatanparvarlik ruhida badiiy asarlarini yuzaga kelishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'smirlar yosh xususiyatlariga mos tarzda berib borish zarur.

8. "O'zbekfilm" studiyasi badiiy saviyasi yuqori vatanparvarlik tuyg'usidagi badiiy filmlarni yaratishda izlanishlar olib borishlari hayotiy zaruriyatga aylandi.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va texnikumlari, oliy o'quv yurtlarida taxsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan minglab o'quvchilar, katta hayotga yo'llanma olayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlari misolida ana shunday orzu-intilishlari bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan, ushbu ulkan ishlar ko'lami va mohiyatiga ko'ra o'smir, yoshlarimizda o'z yurti, vatani, oilasi uchun fidoiy bo'lgan ma'naviy barkamol inson bo'lib voyaga yetishlari yo'lida mustahkam zamin yaratadi

Zamonaviy yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchilardan ularga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lish lozimligini taqozo qiladi.

Talabalari endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitishva «5» baxolarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'quv motivlari ustuvor bo'lib boradi, lekin o'quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy xis-tuyg'ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan talabalarning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. Talabalar qiyinchilik bilan bo'lsada, o'zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o'z xulqini o'zgartirib unga moslasha boradi.

Kuzatuvchanlikni tarbiyalash faol uyushgan, aniq maqsadga muvofiq sistemali kuzatish ko'nikmasini tarbiyalash sifatida juda muximdir. O'qituvchi kuzatishni tashqil qilar ekan talabalar oldiga aniq va muayyan bir maqsadni qo'yadi, kuzatishni yo'lga soladi. Talabalarni kuzatish natijalari so'z yoki ko'rgazmali tarzda kayd qilishini o'rgatish muxim ishdir. Bilim yurtlarda vatanparvarlik shakllantirish borasida amalga oshiriladigan tadbirlar tashkil har tomonlama, jozibador, ko'tarinki ruxda, o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi talaba yoshlarni mustaqil O'zbekistonning kelajagi. Mana shu navqiron avlod namoyandalarini qanchalik ma'naviy jihatdan barkamol, yetuk



kishilar qilib voyaga yetkazsak, ularning har birida vatanparvarlik qadriyatlarini, milliy g'ururni shakllantirib borsak, qat'iyatli, o'z kuch va imkoniyatlariga ishongan, ko'zlangan yuksak taraqqiyot marralari sari, intiluvchan talaba yoshlarni tarbiyalab boramiz.

Talabalarda dars va darsdan tashqari vaqtlarida vatanparvarlik tuyg'usini singdirishda pedagogik jihatdan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat – qanday vositalar yordamida berilayotgan ma'lumotni yetkazish masalasidir. Kitoblar, tayyor ko'rgazmali qurollardan tashqari hozirgi kunda audio-video vositalar, multimedialar, videoslavdlar, masofali o'qitish, elektron versiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zi tanlagan mutaxassislikni egallash uchun o'zida qanday shaxsiy xislatlar bo'lishi kerakligini yaxshi bilishi kerak. Buning uchun esa unga faqatgina tor doiradagi kasbga oid bilimlarga emas, balki o'zbek millatiga otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan insoniy xislatlar, urf-odatlar, udumlarni mukammal bilishi kerak, ulardan faxrlanishi, o'zining kasbi bilan bevosita bog'liq jahonga mashhur ajdodlarimiz shaxsiy hayotlari va faoliyatlarini chuqur o'rganib, vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jamiyat uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham yangi ta'lim standartlari doirasida mutaxassislar tayyorlash bugungi kunda har bir pedagogdan o'smirning iqtidori, uning qiziqishlari, ma'naviyatini oshirishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonova va O.To'raeva va boshqalar.Redagogika .Darslik.
2. “ O'qituvchi” , T.: 2001yil.163-bet
3. V. Karimova, F.Akromova. Pedagogika. Darslik.-T.: TDIU, 2007-183 bet.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik . –T., 2012 – 196 b.
5. Mamtov M. Milliy psixologik qiyofo va uning xususiyatlari. T.: O'zbekiston, 1980. -76 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada O'zbek xalqi o'z mustaqilligini qo'lga kirgizganidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida vatan tuyg'usi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье, с момента обретения узбекским народом независимости, происходит формирование чувств патриотизма, патриотизма, гуманности и доброты в системе духовно-нравственного воспитания нашей молодежи и детей, комментируется воспитание их как преданных детей своего народа. и родина представлены.

SUMMARY

In this article, from the moment the Uzbek people gained independence, feelings of patriotism, patriotism, humanity and kindness are being formed in the system of spiritual and moral education of our youth and children, and their upbringing as devoted children of their people is commented on and Motherland are represented.